

DEVELOPING THE INTELLECTUALITY OF STUDENTS THROUGH THE WORKS OF ABDULLA AVLONI

Rahimjonova Dilfuza

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi,
Faculty of professional education.*

Abstract: In order to educate students of general secondary education in Uzbekistan on the basis of harmonizing national and universal values, high spiritual and moral qualities, to form citizens loyal to their homeland and people, the General purpose of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan The decision "On approval of the regulation on secondary education" was adopted [1]. In this, tasks related to ensuring regular knowledge acquisition by students, development of their need for knowledge, formation of basic educational, scientific and general cultural knowledge were defined.

O‘quvchilar intellektualligini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, o‘quvchilar intellektualligini rivojlantirishda Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy o‘zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan bo‘lib, XX asr ta’lim-tarbiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtirgan olimdir. O‘quvchilar intellektualligini rivojlantirishda jadidchi olim Abdulla Avloniy asarlari metodik manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilar intellektualligini rivojlantirish muammosini nazari jihatdan yoritish maqsadida asosiy tushunchalar izohiga to‘xtalib o‘tamiz: “Rivojlanish” shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Shuningdek, Intellekt” (lot. Intellectus- aql, idrok, zehn) [5] keng ma’noda kishining voqeа hodisa mohiyatini to‘laligicha bilishga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati, tor ma’noda insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyatini nazarda tutadi.

Intellekt kishilardagi aql-zakovat, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham izohlaydi, tasavvur, idrok, sinchikovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va h.k) orqali asosli bilimga ega bo‘lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatidir [4]. Rivojlanish mobaynida bir qancha omillar o‘z ta’sirini o’tkazadi. Bunda tashqi muhit, ijtimoiy muhit kabilar muhim ahamiyatga ega. Insonni rivojlanishi borasida ko‘pgina olimlar mulohazalar olib borishgan va o‘z fikrlarini bildirishgan. D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenberg va boshqalar [3] aniqlab, intellektni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb o‘rganishgan. V.Shterni, J.Piaje, D.Veksler va boshqalar

ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siriga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Intellektual xatti-harakatlar tashqi muhit va nutqqa suyangan holda idrokning ichki rejalarida bajariladigan xatti-harakatdir.

Intellektual rivojlanish mezoni (ong IQ aqliy yosh (AYO) va xronologik yosh (XYO) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon: $IQ = AYO/XYO \times 100$. Intellektning biror bir yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin.

O'quvchilar intellektualligini rivojlantirishda Tafakkur tushunchasi intellektuallikning tarkibi hisoblangani bois, Tafakkur quyidagicha izohlanadi: Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm, tushuncha, xulosa shakllarida yuzaga keladi.

Avloniy 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ijod qildi. Abdulla Avloniy shoir, yozuvchi, dramaturg hamdir. U faoliyatning ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi. O'qitish fanlarining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan shug`ullandi. Maktab uchun darsliklar yaratdi. XX-asrning zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisidir. O'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkiridir. Uning asarlarini o'rganar ekanmiz, o'zining qarashlari, hur fikrlari bilan insonni ilm ma'rifatga, turli sohalarda rivojlanishga bo'lgan da'vat ruhi ufirib turadi. Xo'sh, o'quvchilar intellektualligini oshirish uchun adib hayotini, uning asarlari, darsliklarining qay jihatlariga e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim? Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun "Birinchi muallim"i (1911) Oktyabr o'zgarishigacha 4 marta, "Alifbedan so'nggi o'quv kitobi" – "Ikkinchi muallim" (1912), axloqiy didaktik mazmundagi "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniyning xalqni ilm olishga, ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridan biri quyidagidir:

Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,
Behudaga surf etma, shu qimmatli zamонни.
Sa'y et, jadal et, ilmu fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahонни [2].

Abdulla Avloniy ning maktab uchun yaratgan asarlari nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy- pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. So'nggi

yillarda buyuk donishmandlik majmuasi bo‘lmish bu asarlarni o‘rganishga qiziqish ayniqla kuchaydi. Sharq mutafakkirlari asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir karra shunga iqror bo‘lamizki, ular asarlarida mangu kitoblarida ifoda etilgan buyuk g‘oyalar, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Abdulla Avloniy haqida juda ko‘p olimlarning ishlari bor. Abdulla Avloniy aksariyat asarlarda jadid, milliy teatr asoschisi, shoir va mohir yozuvchi sifatida tahlil qilinadi. Adibning pedagogik qarashlari, mohir o‘qituvchilik faoliyati hali hamon tadqiq nazarida qolmoqda. Bu sohada Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini yoritib berilgan. Shuningdek, ishda nazariy xulosalar yaratishda N.Karimov, B.Nazarov, S.Mirvaliev, B.Qosimov, SH.Rizaev, M.Jumaboev, R.Barakaev, Y.Abdullaev va boshqa adabiyotshunoslarning ilmiy asarlarida bayon qilingan nazariy xulosalarga ham tayanishimiz mumkin. S.Nishanova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko‘plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e’tiborga loyiqdir.

Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sherazi, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adibning asarlarini o‘rganar ekanmiz, unda boy tarixiy va zamonaviy hayot masalalari aks etgani, o‘quvchilarning ilm olishi, aql salohiyatga ega bo‘lishi, tafakkur va dunyoqarashini kengayitirishi uchun boy adabiy, ilmiy meros sifatida biz o‘rganuvchilar uchun qimmatli manbalardir.

Abdulla Avloniy ijodi, uning asarlari mazmun mohiyatini o‘ganish davomida alohida qayd etish joizki, olimning ijodidagi g‘oyaviy manbaalar o‘quvchlarda ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, shaxsdagi g‘oyalarni kamol topishiga turtki bo‘ladi.

Ta‘kidlash mumkinki, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug‘lanishi bevosita insonni ulug‘lash bilan uzviy bog‘lanadi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda va har birimiz aqliy salohiyatimizni, ilmiy fikrlashimizni rivojlantirishimiz uchun bu boy merosdan xabardor bo‘lishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagи “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-soni qarori. <https://www.lex.uz/docs/-3137130>
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 1-2jildlik. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: B.Qosimov. – Toshkent. Ma‘naviyat, 2009. 7- 9 bet.
3. Абдусаматова Ш.С. Интерактивное обучение как специальная форма организации познавательной деятельности. “Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари” илмий мақолалар тўплами, 2020. 191-194.
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat.– Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA» 2011. 100 -130 b.
5. Qodirov R.G` . Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. –T.: 2005, 6-9 b.